O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA’LIM FAKULTETI
Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi

# “Ona tili o`qitish metodikasi”

fanidan

# MUSTAQIL TA’LIMNI
## tashkil etish bo’yicha
# TAVSIYA

**(3-KURS)**

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **100000 –** | **Gumanitar** |
| **Ta’lim sohasi:** | **110000 –** | **pedagogika** |
| **Ta`lim yo‘nalishi:** | **5111700 –** | **Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish** |

**Buxoro - 2021**

Metodik ko'rsatma 5111700– Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi Davlat ta'lim standarti asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchilar:** p.f.d., prof. A.R.Hamroyev
p.f.b.f.d.(PhD), dosent N.B.Adizova
o'qituvchi Y.A.Po'lotova

**Taqrizchi:** p.f.b.f.d.(PhD), dosent M.J.Saidova

Metodik ko'rsatma Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi yig'ilishida muhokama etilgan
(2021 yil 28.08. №1-sonli bayonnoma).

**Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri:** **A.R.Hamroyev**

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti O'quv-metodik Kengashida tasdiqlangan (2021 yil 28 avgust 1-bayonnoma).

***O'quv-metodik Kengash raisi*** **O.R.To'xsanov**

## Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi

### I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-son qaroriga muvofiq kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va baholash tartibini belgilaydi.

1.2. Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan ta'minlangan hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

1.3. O'quv semestri yakunida talabaning mustaqil ishi bo'yicha to'plagan reyting ballari fan bo'yicha auditoriyadagi o'quv ishlariga berilgan reyting ballari bilan birgalikda guruh reyting qaydnomasida qayd etiladi.

### II. Talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari

2.1. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi- o'qituvchining raxbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

2.2.Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Fan bo'yicha yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Fan bo'yicha kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- Mavzuga tegishli axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- Fan bo'yicha an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar bilan ishlashga o'rgatish;
- Fan bo'yicha elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlashga o'rgatish;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish.

### III. Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari

3.1. Talaba mustaqil ishini tashkil etish fanning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- rejaviy material qismini mustaqil o'rganish bo'yicha qanday ma'ruza mashg'ulotlari chegarasida bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlikda axborotni elektron o'kuv adabiyotlari, Internet va boshqalarni qo'llash;

- fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash;
- tahliliy tekshirish olib borish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash.

3.2. O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

3.3. Mustaqil ishni bajarish uchun fan bo'yicha talabalarga zaruriy metodik qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## IV. Talaba mustaqil ishning axborot ta'minoti

4.1. Talaba uchun fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari kafedra Fan yo'nalishi o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchilar bilan birgalikda tuzilgan. Talabaga berilgan topshiriqda mustaqil ishni bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar qayd etilgan.

4.2. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darsliklari, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

## V. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish va baholash

5.1. Kafedrada fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish qayd etilgan.

5.2. Talaba mustaqil ishiga raxbarlik qilish kafedrada tuzilgan va fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan konsultasiyalar jadvali asosida amalga oshiriladi.

5.3. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

5.4. Talabaning mustaqil ishi uchun ajratilgan ball hisobidan baxolanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi. Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan, mustaqil ishi bo'yicha, an'anaviy guruh reyting oynasida va universitetning maxsus elektron tarmog'ida yoritib boriladi.

5.6. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari kafedra tomonidan belgilangan va fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlangan. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanish oldidan metodik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

5.7. Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballining 55% dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

5.8. Fan bo'ycha talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishida muhokama etib boriladi.

5.9. Talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va 6 oy mobaynida saqlanadi.

## VI. «Ona tili o'qitish metodikasi» fani bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

| № | Mavzu | Ajratilgan soat | Shakli |
|---|---|---|---|
| 1 | Fonetika va grafika asoslarini o'rganishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash | 2 | Taqdimot tayyorlash |
| 2 | Unli va undosh tovushlarni o'rganishda leksik mashqlarni tashkil etish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 3 | Unli va undosh tovushlarni o'rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 4 | So'z tarkibini pedagogik texnologiyalarni o'rganishda qo'llash | 4 | Taqdimot tayyorlash |
| 5 | So'z tarkibini o'rganishda leksik mashqlarni tashkil etish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 6 | So'z tarkibini o'rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 7 | Ona tili darsliklarini qiyosiy-tanqidiy tahlili | 4 | Darslikni tahlil qilish |
| 8 | 1-4-sinflar ushun nashr etilgan metodik qo'llanmalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili | 4 | Darslikni tahlil qilish |
| 9 | Ona tili darslarida qo'llanadigan samarali metodlar | 2 | Taqdimot tayyorlash |
| 10 | Ona tili darslarida foydalaniladigan jadvallar seriyasini tuzish | 2 | Taqdimot tayyorlash |
| 11 | Ona tili darslarida ta'limiy 'yinlarni qo'llash | 4 | Taqdimot tayyorlash |
| 12 | Boshlang'ich sinflarda ot turkumini o'rganishdagi uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishini tahlil qilish | 4 | Darslikni tahlil qilish |
| 13 | Ot so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan ko'rgazmalar | 2 | Ko'rgazma tayyorlash |
| 14 | Ot so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan mustaqil ishlarni ishlab chiqish | 2 | Krossvord tayyorlash |
| 15 | Otlardan kelishik kategoriyalari yuzasidan berilgan mashqlarni tahlil qilish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 16 | Sifat so'z turkumini o'rganishda interfaol usullarni qo'llash | 2 | Taqdimot tayyorlash |
| 17 | Sifat so'z turkumini o'rganishdagi leksik-semantik mashqlar | 2 | Taqdimot tayyorlash |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 18 | Sifat so'z turkumini o'rganishdagi leksik-semantik mashqlar | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 19 | Son so'z turkumi yuzasidan darslikdagi berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 20 | Son so'z turkumini o'rganishda 7rammatik 'yinlardan foydalanish | 2 | Taqdimot tayyorlash |
| 21 | Olmosh so'z turkumini o'rganishda ta'limiy 'yinlardan foydalanish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 22 | Son so'z turkumini o'rganishdagi mashqlar tizimini tahlil qilish | 4 | Darslikni tahlil qilish |
| 23 | Fe'l so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan ta'limiy 'yinlarni tayyorlash | 4 | Darslikni tahlil qilish |
| 24 | So'z turkumlarini o'rganishda hosil qilinadigan orfografik bilimlar | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 25 | So'z turkumlarini o'rganishga oid adabiyotlar ro'yxatini tuzish | 2 | Taqdimot tayyorlash |
| 26 | Internetdan boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishga oid ma'lumotlarni yig'ish | 4 | Taqdimot tayyorlash |
| 27 | 1-4-sinf darsliklaridagi orfografiyaga oid mashqlarni tahlil qilish | 4 | Taqdimot tayyorlash |
| 28 | O'quvchiardagi tipik orfografik xatolarni aniqlash | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 29 | Boshlang'ich sinf o'quvchiarining bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish uchun materiallar tayyorlash | 2 | Ko'rgazma tayyorlash |
| 30 | Boshlang'ich sinf darsliklarida fe'lga oid mashqlarni tasnif qilish | 2 | Krossvord tayyorla |
| 31 | Boshlang'ich sinfda gap ustida ishlashdagi izchillik | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 32 | Gap ustida ishlashga oid mustaqil ishlar | 2 | Taqdimot tayyorlash |
| 33 | Boshlang'ich sinf darsliklarida punktuatsiyaga oid berilgan materialar tahlil qilish | 2 | Takdimot tayyorlash |
| 34 | 1-4-sinf ona tili darslari o'qituvchi kitobini tahlil qilish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 35 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini o'stirishga oid mashq turlarini ishlab chiqish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 36 | Boshlang'ich sinf o'quvchiarini morfologik tahlilga o'rgatish | 2 | Taqdimot tayyorlash |
| 37 | Ona tili darslarida o'tkaziladigan leksik-semantik ishlar | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 38 | Ona tili darslarida o'tkaziladigan leksik-semantik ishlar | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 39 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini o'stirishga oid mashq turlarini ishlab chiqish | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 40 | Bayon uchun material to'plash | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| 41 | Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini | 2 | o'quv dasturni tahlil qilish |
| 42 | Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi 1-2-sinf. | 2 | Darslikni tahlil qilish |
| | Jami | 100 | |

**Modul asosida mashg'ulot turlariga ajratilgan reyting ballari taqsimoti**

| Mashg'ulot turi | JB1 | OB1 | YAB |
|---|---|---|---|
| Ma'ruza | | 2 | 5 |
| Amaliy mashg'ulot | 1 | | |
| Mustaqil ta'lim | | 2 | |

**"Reyting" tizimiga ko'ra joriy va oraliq baholash jadvali**

| № | Mashg'ulot turi | 3-kurs | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 5-sem | 6-sem | Jami |
| 1. | Nazariy | 16 | 30 | 46 |
| 2. | Amaliy mashg'ulot | 30 | 48 | 78 |
| 3. | Seminar mashg'uloti | 16 | 24 | 40 |
| 4. | Mustaqil ta'lim | 32 | 68 | 100 |
| 5. | Kurs ishi (loyihasi) | | + | |
| 6. | | | | |
| | Jami | 94 | 170 | 264 |

**VII. Mustaqil ta'limni tashkil etilishini axamiyati.**

Ta'lim oluvchilarning faol fikrlovchi shaxs bo'lishi zarurati pedagogik fanida allaqachonlar ta'kidlangan va bu muammo qiziqib o'rganilgan. J.J.Russ (1712-1778), nemis pedagogi A.Disterverg (1790- 1866) lar ham o'zlarini didaktik ta'limotlarida ta'lim oluvchi va talabada mustaqil fikrlashni rivojlantiri zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Ular mustaqillikni ta'lim va tarbiyaning asos tamoyili deb hisoblaganlar. Zero, Distervergning fikricha, mustaqil egallang

bilimlar va ko'nikmalar katta ahamiyatga ega. Disterverg: –Aqlni hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Ularni inson o'zi mustaqil o'rganishi, o'zlashtirishi va qayta ishlashi zarur..... –Yomon o'qituvchi tayyor haqiqatni beradi, yaxshi o'qituvchi esa uni topish yo'lini o'rgatadi, - deb ta'kidlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimi talabaga –obyekt sifatida emas balki, –subyekt sifatida yondashishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida shaxsning bilish va ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan muntazam o'quv faoliyati bo'lgan mustaqil ta'limning dolzarbligini oshirmoqda.

Mustaqil ta'lim jarayonida bilimlar kengayadi, chuqurlashadi, mukammallashadi, turli sharoitlarda ulardan foydalanish imkonini beruvchi universallik xarakteriga ega bo'ladi. Mustaqil ishlar turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Masalan, manbalar bilan ishlash, kuzatish ishlarini olib borish, loyihalash, tajriba sinovlarini o'tkazish, trenajyorlarda mashqlar bajarish va shu kabilar.
A.S.Linda va uning maslakdoshlari Ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatganlar:

- ✓ ta'lim oluvchilarning aqliy, irodaviy va jismoniy kuchlarini talab etuvchi ishlar, mustaqil intellektual va amaliy faoliyatga qiziqtiruvchi ishlar;
- ✓ bilish yoki amaliy vazifalar xarakteridagi ishlar;
- ✓ muammoli vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ishlar;
- ✓ qo'yilgan bilish va amaliy xarakterdagi vazifalar echimini topishda ijodiy yondashuvni talab etuvchi mustaqil ishlar;
- ✓ o'z faoliyatini rejalashtirish, uni ilmiy tashkil etish, boshqalarning yordamisiz vazifalarni bajarish, ish natijalarini maqsadiga qiyoslab baholashni ko'zda tutuvchi ishlar;
- ✓ muntazam ravishda ishning borishi, natijalarni nazorat qilish, kerakli hollarda o'zgartirishlar kiritish va amalga oshirishni takomillashtirib borishni ko'zda tutuvchi ishlar;
- ✓ qo'yilgan vazifalarni to'laqonli bajarishga kirishish, bu o'z navbatida Ta'lim oluvchi shaxsini yaxlit rivojlantirishga imkon berib, aqliy va amaliy faoliyat usullari, o'zi ustida ishlashi va ijodkorlikni shakllanishiga imkon beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mustaqil ishlar talaba oldiga ma'lum bir ta'limiy muammoni hal qilishni qo'yadi. Mustaqil fikr юritish jarayoni esa, muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Mustaqil fikr юritish malakasiga ega talaba nostandart yoki kutilmagan vaziyatlarda tezkor, aniq va to'g'ri qaror qabul qilishga asos hisoblanadigan izlanuvchan ijodiy faoliyatni ta'minlovchi jihatlarga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha bir qancha ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsada, talabalar mustaqil ishlarini faqatgina kerakli balni to'plash uchungina bajarishmoqda. Albatta, bu holatda ishning samarasi kuzatilmaydi.

Talabalarning mustaqil ishlarni bajarishdagi faolligi jiddiy motiv mavjud bo'lgandagina jadallashadi. Bizga psixologiyadan ma'lumki, motiv biror faoliyatga yoki harakatga undovchi kuchdir.

Mustaqil ishlarni bajarishni faollashtiruvchi motivlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Tashqi motiv – talabaning ta'lim olish va oliy o'quv юrtidagi natijalarga bog'liqligi. Afsuski, bu faktor hozircha etarlicha foyda bermayapti, lekin sekin-astalik bilan oliy o'quv юrtida olingan natijalarga ish beruvchilar tomonidan qiziqish ortmoqda.

2. Ichki motiv – talabaning ta'lim olish va oliy o'quv юrtiga ishtiyoqi (havasi) va uning imkoniyatlarini tanlagan kasbiga mosligi. Uni har bir abiturientdan oliy o'quv юrtiga kirishgacha bo'lgan vaqtda aniqlash lozim.

3. Ta'limiy motiv – talabaning bajarilayotgan ishning foydali ekanligini anglab etishida юzaga keladi. Talabalar bajarilayotgan ishning muhimligi mutaxassislikka oid bilimlarni oshirish, dunyoqarashni kengaytirish kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashda ekanligini anglab etishlari lozim. Mustaqil ishlarning natijasi ma'ruza materiallarini,
laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlarini yaxshiroq tushunishida talabaga yordam berishini isbotlab berish lozim.

Mustaqil ishlarni bajarishni faollashtiruvchi ta'limiy motivlar:

1. Bajarilayotgan ishning foydaligi. Agarda talaba bajarayotgan ishining natijalaridan ma'ruza kurslarida, metodik qo'llanmalar tayyorlashda, laboratoriya mashg'ulotlarida va maqolalar tayyorlashda qaysidir miqdorda foydalansa, mustaqil ishlarni bajarishga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgaradi hamda bajarayotgan ishlarining sifati ortishi.

2. Talabalarning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu talabalarning kafedradagi ilmiy-tadqiqot, tajribaviy-konstruktorlik yoki metodik ishlarni bajarishdagi ishtiroki.

3. O'quv fanlari bo'yicha olimpiadada, ilmiy-tadqiqot yoki amaliy konkurslarda ishtirok etishi.

4. Bilimlarni nazorat qilish (baholash, reyting ballari, testlar, nostandart imtihon jarayonlari)motivi. Ushbu motiv ma'lum vaziyatlarda talabalar o'rtasida musobaqalashish jarayoninini vujudga keltiradi.

5. Talabalarni ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari va ijodiy faolligi uchun rag'batlantirish (stipendiya, mukofotlar, rag'batlantiruv-chi ballar) yoki yomon o'qiganliklari uchun jazolash.

6. Auditoriyada va undan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlarni individual bajarishga erishish hamda ularni doimiy ravishda yangilab turish.

7. Mustaqil ishlarni bajarish va o'quv jarayonida o'qituvchi shaxsi asosiy motivlardan hisoblanadi. O'qituvchi mutaxassis hamda ijodiy shaxs sifatida talaba uchun namuna bo'lishi lozim. U talabaga ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishida ko'maklashishi lozim.

Mustaqil ishlar mustaqil faoliyat yuritish malakasiga ega mutaxassisni tayyorlashda ko'maklashadi. Mustaqil faoliyat юritish sifatiga ega mutaxassis faqatgina ko'rsatmalarga binoan faoliyat ko'rsatuvchi oddiy ijrochi emas, balki, masalalar echimiga ijodiy yondashib, yangiliklar yaratuvchilik qobiliyatiga ega bo'ladi.

Mustaqil bilim olishda avtonomlik – o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarini aniqlash hamda tanlash, ularni qiynalmasdan, tashqi ta'sir yordamisiz amalga oshirish qobiliyatidir.

Mustaqillik holati namoyon bo'lgan, biroq, avtonomlik xususiyati ko'zga tashlanmasa, bu hol mustaqil bilim olishni emas, balki muammoli o'qitishning mavjudligidan dalolat beradi. Demak, avtonomlik - o'z mohiyatiga ko'ra mustaqil bilim olishdan farq qiladi. U o'quv va kasbiy faoliyat mustaqilligini belgilaydi. Bu sifatlar o'quv-pedagogik masalalarning turli variantlarini tushunishda va mavjud holatni tanqidiy baholashda namoyon bo'ladi. Mustaqil bilim olishning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq.

Mustaqil bilim olish nazariyasi va texnologiyada ham pedagogik tamoyillar asosiy rolni o'ynaydi. Mustaqil bilim olayotgan sub'ektni ta'lim jarayonida hech kim o'qishga majbur etmasligi muhimdir.

Mustaqil bilim olish sabablarining rivojlanishi sub'ektni ijodiy faoliyatini tashkil etishga undaydi va shu bilan uning oldiga - mustaqil bilim olish qanday bo'lishi kerak degan savolni qo'yadi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasi va mustaqil bilim olish sabablari bir-biri bilan bog'likdir: aniq natijaga erisha olishiga ishonmaslik Ta'lim oluvchini mustaqil bilim olishdan har qanday boshqa sabablardan ko'ra ko'proq ko'nglini sovutadi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammmolarni hal etishni ko'zda tutadi. Ular orasida muntazam bilim olishning maqsadini qo'yish muammosi alohida ajralib turadi. Agarda ta'lim olish umumiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilsa, mustaqil bilim olishning maqsadi esa kasbiy shakllanish yoki kasbiy mahoratni o'stirish hisoblanadi.

Mustaqil bilim olishni ta'minlashga imkon beradigan topshiriqlar tushuncha, sabab va qadriyatli yunalishlarni o'zlashtirishi past darajali va qoniqarsiz bo'lgan Ta'lim oluvchilar uchun qulay sharoitni yaratishni ko'zda tutadi. Birgina muvaffaqiyatni his etish ham Ta'lim oluvchini mustaqil bilim olishga undovchi psixologik holatni юzaga keltiradi.

Ta'lim oluvchining mustaqil ishi uning auditoriyada va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi. Lekin hamma Ta'lim oluvchilar ham o'qituvchi ishtirokisiz mustaqil izlanadi deb aytolmaymiz. Chunki Ta'lim oluvchilarning aksariyatida o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi ularning mustaqil bilim olishlariga to'sqinlik qiladi. Shunday ekan, Ta'lim oluvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini, oshirish uchun mustaqil ta'limni yakka holda emas balki kichik guruh shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xalqimizda –Birlashgan o'zar - birlashmagan to'zar,

–Kuch birlikda maqollar bejiz ishlatilmagan. Guruh ishini lupaga tenglashtirishimiz mumkin. Agar lupa qimirlatmasdan bir tomonga yo'naltirib turilsa oddiy quyosh shu'lalaridan alanga hosil qilish mumkin, yakka holda quyosh shu'lasi alangani hosil qilishi qiyin. Shunday ekan, Ta'lim oluvchilarni mana shu tarzda birlashtirib ma'lum bir yo'nalishga yo'naltirsak, mavjud muammolar bartaraf etiladi va ko'zlangan maqsadga osonlik bilan erishiladi.

–Kichik guruhlarda mustaqil ta'limni tashkil qilish hozirda Ta'lim oluvchilar orasida mustaqil ta'limni tashkil etishdagi mavjud muammolarni hal qilishga yordam beradi. Hozirda Ta'lim oluvchilar orasida mustaqil ta'limni tashkil etishdagi muammolar quyidagilar: vazifalarni hamma Ta'lim oluvchilarning bajarmasligi; Ta'lim oluvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi; Ta'lim oluvchilar nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmagani; Ta'lim oluvchilarni baholashda vaqtning etishmasligi;

Ta'lim oluvchilar orasida ilmiy muloqotning yo'qligi; fanga bo'lgan qiziqishning sustligi; Ta'lim oluvchilarga topshiriq berilayotganda temperament hususiyatlariga etibor qaratilmasligi va yana boshqa bir qancha muammolarni sanab o'tish mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun –Kichik guruhlarda mustaqil ta'limni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

–Kichik guruhlarda mustaqil ta'limni qanday tashkil qilishni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Ta'lim oluvchilar 3 guruhga ajratiladi. har bir guruhda bilim doirasi turlicha bo'lgan Ta'lim oluvchilar bo'lishi shart. Guruhlarga o'zining liderlik qobiliyati, bilimi юqori Ta'lim oluvchilardan sardorlar tayinlanadi va biror mavzuga mustaqil tayyorlanib shu mavzuni yoritib berish so'raladi.

Har bir Ta'lim oluvchida nimagadir qiziqish va qaysidir qobiliyat yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bu qiziqishlarini o'qituvchidan ko'ra o'zining kursdoshlari yaxshiroq biladi. Sardor har bir Ta'lim oluvchiga bilim doirasiga qarab topshiriqlar beradi. Hattoki eng dangasa Ta'lim oluvchi ham guruh bilan ishlaganda fanga bo'lgan qiziqishi ortadi. Kichik guruh bilan ishlashda sardor zimmasida barcha Ta'lim oluvchilarning qiziqishlari va bilim darajasini bilishi va vazifalarni taqsimlashi lozim. Mustaqil ishni bunday olib borilishi natijasida bir qancha ютuqlarga erishish mumkin, ya'ni bu jarayonga barcha Ta'lim oluvchilarning jalb etilishi, Ta'lim oluvchilarning o'z qiziqishlari orqali fanga olib kirish va fanga bo'lgan qiziqishini orttirilishsh, vaqtni tejash imkoniyati, qisqa vaqt ichida tengqurlari bilan axborot almashish yo'li bilan bilimga ega bo'lishi, Ta'lim oluvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchining ortishi, o'z— o'zini va guruhlararo baholash imkoniyatining mavjud bo'lishi, jamoa bilan ishlashni o'rganishi, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, muomala madaniyatining rivojlanishi, javobgarlik hissining kuchayishi, har bir Ta'lim oluvchi o'zining qobiliyatini namoyon qilaolishi.

Mustaqillik - shaxsning alohida xususiyati, layoqati, faolligi diqqatini jamlash qobiliyati, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida bor kuchini sarf etish kabi xususiyatlar birligidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar


1. wiki.mpedagog.ru/talabalar-mustail-fikrlashini-faollashtirish.

2.Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 14-avgust 286 sonli buyrug'iga1-ilova

3.Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha YO'RIQNOMA

4.S.E.Umirov, B.Y.Toshboyev, SH.M.Rasulov, A.Y.Mustanov. Toshkent-2012. Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi N I Z O M Uslubiy ko'rsatma.5 bet

5. Najmiddinova H. Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatida o'zlashtirish samaradorligiga erishish. Ta'lim muammolari. 2009 yil, 2-son.

6. Otamirzayev O. U., Zokirova D.N., Vaxobova S.K. Metodicheskie rekomendasii po organizasii samostoyatelьnoy raboti studentov. // International Scientific Journal. —2016. — № 4.


### Asosiy adabiyotlar


1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.

3. Matchanov S., G'ulomova X., IOldasheva SH., A. Nisanbaeva. Ana tilin oqыtu ədistemesi. –T.: TDPU, 2013. – 277 b.

4. Raxmatullaeva L.I. Metodika prepodavaniya rodnogo yazыka rodnogo yazыka. –T.: Uchebnoe posobie. Moliya Iktisod, 2007.


### Qo'shimcha adabiyotlar


5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.56 B.

6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.

7. Mirziyoyev Sh.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.

8. Mirziyoyev Sh.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –"O'zbekiston" -2017.104 B.

9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2017. -46 b.

10. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti. –T.: Yangiyo'l poligraf service, 2010. – 42-46 b.

11. Uzviylashtirilgan o'quv dasturi. –T.: Yangiyo'l poligraf service, 2010. – 46-68 b.

12. Abdullayeva Q. va boshq. O'qish kitobi (2-sinf uchun darslik). –T.: O'qituvchi, 2010. – 192 b.

13. Abdullayeva Q. va boshq. 2-sinfda o'qish darslari. –T.: O'qituvchi, 2009. – 266 b.

14. Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). –T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2009. – 266 b.

15. Umarova M., Sh.Hakimova. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: Cho'lpon, 2008. – 240 b.

16. Umarova M, Sh.Hakimova. O'qish darslari (3-sinf uchun). –T.: Cho'lpon, 2008. – 126 b.

17. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. -T.: O'qituvchi, 2003.

18. Qosimova Q. "2-sinflarda ona tili darslari". T. "O'qituvchi", 1998 yil.

19. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: Sharq, 2009. – 127 b.

20. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. –T.: Sharq, 2003. – 126 b.

21. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili (2-sinf uchun darslik). – T.:Cho'lpon, 2013. -127 b.

22. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili (3-sinf uchun darslik). – T.:O'qituvchi, 2013. -143 b.

23. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. (4-sinf uchun darslik). –T.:O'qituvchi, 2013. -190 b.


### Internet saytlari


24. www. tdpu. uz
25. www. pedagog. uz
26. www. Ziyonet. uz
27. www. edu. uz
28. tdpu-INTRANET. Ped